

ELEKTRON TIJORAT TIZIMI

Toshkent kimyo texnologiya instituti
Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti
kafedrası assissenti Rasulkulova Arofat
Toshkent kimyo texnologiya instituti
Sanoat muhandisligi va menejmenti
fakulteti, 4-kurs talabasi
Ubaydullayeva Omina Nigmatilla qizi
nshamirzayeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada elektron tijorat tizimining nazariy asoslari, mazmun-mohiyati hamda zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Elektron tijoratning shakllanish jarayoni, uning asosiy turlari va faoliyat mexanizmlari yoritib beriladi. Shuningdek, elektron tijorat tizimining texnologik infratuzilmasi, elektron to'lov vositalari va axborot xavfsizligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada elektron tijoratning jahon iqtisodiyotidagi rivojlanish tendensiyalari hamda O'zbekiston sharoitida ushbu sohaning istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, raqamli iqtisodiyot, onlayn savdo, elektron to'lovlar, internet texnologiyalari, biznes modeli.

Annotation. This article analyzes the theoretical foundations, essence, and role of the e-commerce system in the modern economy. The process of formation of e-commerce, its main types, and mechanisms of operation are discussed. Special attention is paid to the technological infrastructure of e-commerce, electronic payment systems, and information security issues. The article also examines global trends in e-commerce development and the prospects of this sector in Uzbekistan.

Keywords: e-commerce, digital economy, online trade, electronic payments, internet technologies, business model.

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jahon iqtisodiyotida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida iqtisodiy munosabatlarning yangi shakli — elektron tijorat tizimi shakllanib, jadal rivojlanmoqda. Elektron tijorat tizimi tovarlar va xizmatlarni internet tarmog'i orqali sotish va sotib olish jarayonlarini o'z ichiga olib, an'anaviy savdo shakllariga nisbatan qulaylik va samaradorlikni ta'minlaydi¹.

Hozirgi kunda elektron tijorat nafaqat savdo operatsiyalarini amalga oshirish vositasi, balki iqtisodiy munosabatlarni tashkil etishning yangi mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli elektron tijorat tizimini ilmiy jihatdan o'rganish, uning nazariy asoslarini tahlil qilish va rivojlanish istiqbollari aniqlash dolzarb masalalardan hisoblanadi².

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi elektron tijorat tizimining mohiyatini ochib berish, uning asosiy turlari va texnologik jihatlarini tahlil qilish hamda zamonaviy iqtisodiyot sharoitida rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

Elektron tijorat tizimining mohiyati va mazmuni. Elektron tijorat tizimi — bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida savdo operatsiyalarini amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy munosabatlar majmuasidir. Mazkur tizim orqali mahsulot va xizmatlar haqida axborot berish, buyurtma qabul qilish, to'lovlarni amalga oshirish, yetkazib berish va sotuvdan keyingi xizmatlar ko'rsatish jarayonlari yagona raqamli muhitda olib boriladi³.

Shu bilan birga, elektron tijorat tizimi tadbirkorlik subyektlari uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, savdo xarajatlarining kamayishi, marketing faoliyatining avtomatlashtirilishi, mijozlar bilan bevosita va uzluksiz aloqaning yo'lga qo'yilishi elektron tijoratning muhim jihatlaridan hisoblanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasining **"Elektron tijorat to'g'risida"**-gi Qonuni. — Toshkent, 2015.

² Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. — Toshkent: O'zbekiston, 2009.

³ Abdullayev O.A. Elektron tijorat va biznes jarayonlarini raqamlashtirish. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

Elektron tijorat tizimining shakllanishi va rivojlanish jarayoni. Elektron tijorat tizimining shakllanishi axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Dastlab internet faqat axborot almashish vositasi sifatida qo'llanilgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan u iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning muhim platformasiga aylandi. Internet foydalanuvchilari sonining ortib borishi savdo munosabatlarini raqamli muhitga ko'chirish zaruratini yuzaga keltirdi⁴.

Zamonaviy bosqichda elektron tijorat tizimi murakkab va ko'p funktsiyali iqtisodiy mexanizm sifatida shakllandi. Onlayn do'konlar, elektron savdo platformalari va marketplace'lar savdo munosabatlarining asosiy subyektlariga aylandi. Bugungi kunda elektron tijorat tizimining rivojlanishida mobil texnologiyalar alohida o'rin egallamoqda.. Bu holat elektron tijoratning yanada tezkor va moslashuvchan bo'lishiga imkon bermoqda⁵.

Elektron tijorat tizimining turlari va faoliyat yo'nalishlari. Elektron tijorat tizimi ishtirokchilar tarkibiga va savdo munosabatlarining xususiyatiga ko'ra bir nechta asosiy turlarga bo'linadi. Ushbu turlar bozor ehtiyojlariga mos ravishda shakllanib, turli iqtisodiy subyektlar manfaatlarini qamrab oladi. Elektron tijoratning eng keng tarqalgan shakllaridan biri bu biznes subyektlari o'rtasidagi savdo munosabatlarini ifodalovchi model hisoblanadi.

Shuningdek, elektron tijorat tizimida iste'molchilarning o'zaro savdo munosabatlari ham muhim o'rin tutadi. Maxsus onlayn platformalar orqali jismoniy shaxslar o'z mahsulotlarini yoki xizmatlarini boshqa iste'molchilarga taklif qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu holat elektron tijoratning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yanada oshiradi⁶.

Elektron tijorat tizimida zamonaviy biznes modellari. Elektron tijorat tizimining samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan unda qo'llaniladigan biznes

⁴ Saidov U.T. Elektron tijorat tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari. // Axborot xavfsizligi muammolari. — 2020. — №2.

⁵ Xudoyberdiyev S.S. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va elektron savdo. — Toshkent: Innovatsiya, 2019.

⁶ Islomov B.B. Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratni rivojlantirish masalalari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2021. — №4.

modellarga bog‘liqdir. Raqamli muhitda savdo jarayonlarini tashkil etish an’anaviy savdodan farqli ravishda yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Shu sababli elektron tijorat tizimida moslashuvchan, innovatsion va bozor talablariga tez moslasha oladigan biznes modellari shakllangan.

Shuningdek, elektron tijoratda vositachilikka asoslangan biznes modellari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday hollarda platforma egasi sotuvchi va xaridor o‘rtasida bog‘lovchi vazifasini bajaradi. Bu model bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlashga va savdo xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, kichik tadbirkorlar uchun ushbu model bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Elektron tijorat tizimining texnologik asoslari. Elektron tijorat tizimining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uning texnologik infratuzilmasiga bevosita bog‘liqdir. Zamonaviy axborot texnologiyalari savdo jarayonlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash va foydalanuvchilarga qulay interfeys yaratish imkonini beradi. Elektron tijorat platformalari veb-saytlar va mobil ilovalar ko‘rinishida ishlab chiqilib, turli qurilmalarda bir xil samaradorlikni ta’minlashga qaratilgan.

Texnologik infratuzilmaning muhim elementlaridan biri ma’lumotlar bazalari hisoblanadi. Ular mahsulotlar, buyurtmalar, to‘lovlar va foydalanuvchilar haqidagi axborotni saqlash va qayta ishlash vazifasini bajaradi. Ma’lumotlar bazalarining ishonchliligi va xavfsizligi elektron tijorat tizimining barqarorligi uchun muhim omil hisoblanadi⁷. Bundan tashqari, elektron tijorat tizimida bulutli texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Bulutli xizmatlar yordamida ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish jarayonlari yanada samarali tashkil etiladi. Bu esa tizimning moslashuvchanligini oshirib, texnik xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Elektron tijorat tizimida elektron to‘lov mexanizmlari. Elektron tijorat tizimining samarali faoliyat yuritishida elektron to‘lov mexanizmlari muhim o‘rin

⁷ Abdullayev O.A. Elektron tijorat va biznes jarayonlarini raqamlashtirish. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

egallaydi. Chunki elektron savdo jarayonida to'lovlar tezkor, qulay va xavfsiz amalga oshirilishi iste'molchilarning ishonchini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Elektron to'lov tizimlari orqali naqd pulsiz hisob-kitoblar keng joriy etilib, savdo jarayonlari soddalashtirilmoqda.

Zamonaviy elektron tijoratda plastik kartalar asosidagi to'lovlar eng keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi. Bank kartalari orqali to'lovlar onlayn savdoning asosiy qismi bo'lib, ular tezkorlik va qulaylikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, mobil to'lovlar va elektron hamyonlar ham keng qo'llanilib, foydalanuvchilarga istalgan joyda va istalgan vaqtda to'lov amalga oshirish imkoniyatini bermoqda. Elektron to'lov tizimlarining rivojlanishi moliyaviy texnologiyalar sohasidagi innovatsiyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Fintex yechimlar elektron tijorat tizimida to'lov jarayonlarini avtomatlashtirish, tranzaksiyalarni tezlashtirish va xarajatlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Bu esa savdo hajmining oshishiga va elektron tijoratning ommalashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, elektron to'lov tizimlarining samaradorligi ularning ishonchliligi va xavfsizligiga ham bog'liqdir. To'lov jarayonlarida shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarning himoyalaniishi iste'molchilar ishonchini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli elektron tijorat tizimida zamonaviy himoya texnologiyalaridan foydalanish zarurati ortib bormoqda.

Elektron tijorat tizimida axborot xavfsizligi va huquqiy jihatlar. Elektron tijorat tizimining barqaror rivojlanishi axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bevosita bog'liqdir. Raqamli muhitda amalga oshiriladigan savdo jarayonlarida shaxsiy ma'lumotlar, moliyaviy axborotlar va tijorat sirlarining himoyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot xavfsizligi masalalariga yetarli e'tibor berilmasligi elektron savdoga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Elektron tijoratda axborot xavfsizligini ta'minlash uchun turli texnologik va tashkiliy choralar qo'llaniladi. Ma'lumotlarni shifrlash, foydalanuvchilarni autentifikatsiya qilish va xavfsiz aloqa kanallaridan foydalanish ushbu choralar

jumlasidandir. Bu usullar orqali foydalanuvchi ma'lumotlarining noqonuniy foydalanilishi va firibgarlik holatlarining oldi olinadi.

Elektron tijorat tizimini huquqiy jihatdan tartibga solish ham muhim masalalardan biri hisoblanadi. Raqamli savdo munosabatlarining rivojlanishi davlatlardan yangi huquqiy normalar va mexanizmlarni ishlab chiqishni talab etadi.

O'zbekistonda elektron tijorat tizimining rivojlanish holati. So'nggi yillarda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu jarayonda elektron tijorat tizimi muhim o'rin tutib, ichki bozorni kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va zamonaviy savdo munosabatlarini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi elektron savdoning ommalashuviga qulay shart-sharoit yaratdi⁸.

Mamlakatda internet foydalanuvchilari sonining ortib borishi, mobil aloqa va raqamli to'lov xizmatlarining kengayishi elektron tijoratning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Onlayn savdo platformalari, elektron to'lov tizimlari va yetkazib berish xizmatlari bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda.

Muammolar va rivojlanish istiqbollari. Elektron tijorat tizimining rivojlanishiga qaramay, ushbu sohada ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, internet infratuzilmasining barcha hududlarda bir xil darajada rivojlanmaganligi, axborot texnologiyalari sohasida malakali kadrlar yetishmasligi elektron savdoning keng miqyosda rivojlanishiga ma'lum darajada to'sqinlik qilmoqda.

Kelgusida elektron tijorat tizimining rivojlanish istiqbollari raqamli texnologiyalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar va mobil texnologiyalarning keng joriy etilishi ushbu sohaning samaradorligini yanada oshirishi kutilmoqda. Elektron tijoratning rivojlanishi iqtisodiy o'sishni jadallashtirib, yangi ish o'rinlarini yaratish va bozor raqobatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

⁸ Xudoyberdiyev S.S. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va elektron savdo. — Toshkent: Innovatsiya, 2019.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, elektron tijorat tizimi zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, uning rivojlanishi raqamli texnologiyalar taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Elektron tijorat savdo jarayonlarini soddalashtirib, iqtisodiy munosabatlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu tizim orqali iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi masofa qisqarib, savdo aloqalari yanada tezkor va qulay shaklga ega bo'lmoqda.

O'zbekistonda elektron tijorat tizimining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar mavjud bo'lib, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu sohaning istiqbolli rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Mavjud muammolarni bartaraf etish, axborot xavfsizligini ta'minlash va huquqiy bazani takomillashtirish orqali elektron tijorat tizimining iqtisodiyotdagi o'rni yanada mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi ***"Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"***gi PQ-4699-son Qarori.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. — Toshkent: O'zbekiston, 2009.
3. Qodirov A.X., Rasulov D.M. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat asoslari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
4. Abdullayev O.A. Elektron tijorat va biznes jarayonlarini raqamlashtirish. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Xudoyberdiyev S.S. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va elektron savdo. — Toshkent: Innovatsiya, 2019.
6. Islomov B.B. Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratni rivojlantirish masalalari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2021. — №4.
7. Saidov U.T. Elektron tijorat tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari. // Axborot xavfsizligi muammolari. — 2020. — №2.
8. Laudon K.C., Traver C.G. E-commerce: Business, Technology, Society. — New York: Pearson Education, 2021.